



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2026-yil 1-son

Volume 5, Issue 1, 2026



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI
ISSN: 3030-3117**



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 1-2026

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir (Executive Editor): Iskandarova Dilafroz Ikrom qizi

Veb-administrator (Web admin): Mamatxo'jayev Otabek

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

A.B.Irmatova M.A.Ibodullayeva	<i>Raqamli texnologiyalarning joriy etilishining ijtimoiy mehnat munosabatiga ta'siri</i>	5-13
I.A.Bakiyeva Z.A.Azamatova	<i>O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va omillari</i>	14-25
M.O.Hamroqulov	<i>Barqaror demografik rivojlanish va mehnat resurslarining hududiy muvozanati</i>	26-37

DEMOGRAFIYA

T.Q.Aliyev Sh.T.Aliyev	<i>Factors affecting demographic development in Azerbaijan and opportunities to use them</i>	38-57
---	--	-------

INSON KAPITALI

S.M.Dusanov	<i>Ta'lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to'g'ri va aks ta'sir etuvchi omillar</i>	58-68
G.Z.Ubaydullayev	<i>Improvement of regional socio-economic development based on human capital management</i>	69-76
S.R.Xolbayeva	<i>Классификация участия человека в экономической системе по признаку его функциональной роли и институционального положения в воспроизводственном процессе</i>	77-93

INSON TARAQQIYOTI

F.A.Abduraxmonov	<i>Digital silk road and Uzbekistan: infrastructure upgrading, inclusion, and digital services growth</i>	94-103
Sh.Z.Karimova	<i>Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholashning nazariy asoslari</i>	104-109
O.S.Mirzamurodov	<i>Namangan viloyati aholi daromadlari darajasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish dinamikasining tahlili</i>	110-118

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

D.I.Iskandarova D.R.Ro'zimurodova	<i>Kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni</i>	119-128
--	---	---------

MIGRATSIYA

- O.O.Dlyanchev** *Фактор миграционной политики ФРГ в обеспечении национальных интересов Республики Узбекистан* 129-140

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

- O'X.Abdukarimov** *Davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun xulosalar* 141-157
- F.Z.Tolibova** *Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruv samaradorligini ta'minlashda hr analitikaning o'rni* 158-165

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

- A.S.Abdullayev** *Tabiiy falokatlar (NATCAT) qayta sug'urtalashida PML ko'rsatkichini baholashning ekstremal qiymatlar ekonometrikasi* 166-174
- E.D.Abduxakimov** *Роль малого бизнеса в обеспечении занятости населения в Узбекистане* 175-182
- M.M.Anvarova** *Kichik biznes subyektlarining raqamli platformalar orqali rivojlanishi nazariy asoslari* 183-190
- Sh.U.Karimova** *Ekologik barqaror transport turlarini iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash va baholash* 191-199
- D.T.Salimov**
S.D.Tojiyev
J.A.Fayziyev *Kobba–Duglas funksiyasi yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish* 200-217
- M.O.Shadmanova** *Mintaqalarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish imkoniyatlari (Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida)* 218-231



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



HUDUDLAR KESIMIDA IJTIMOY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Karimova Shirin Zoxid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası i.f.f.d., dotsenti

karimovashirin22@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a246

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi asosiy statistik ko'rsatkichlar orqali tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida hududiy yalpi mahsulot, iqtisodiy faol aholi ulushi, bandlik darajasi, aholi jon boshiga o'rtacha daromad, real daromad o'sishi hamda kambag'allik darajasi kabi indikatorlar o'rganildi. Tahlil natijalari hududlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha ma'lum tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayrim hududlarda iqtisodiy salohiyat, daromadlar va bandlik darajasi yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu ko'rsatkichlarning pastligi kuzatildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish hamda hududiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: Hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, hududiy tabaqalashuv, hududiy yalpi mahsulot, iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi, aholi daromadlari, real daromad o'sishi, kambag'allik darajasi, inflyatsiya, logistika

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ В РАЗРЕЗЕ РЕГИОНОВ

Каримова Ширин Зохида кизи

PhD, доцент кафедры «Цифровая экономика»

Ташкентского государственного экономического университета

Abstract. This article analyzes the level of socio-economic development of the regions of Uzbekistan using key statistical indicators. During the research, indicators such as gross regional product, share of economically active population, employment rate, average income per capita, real income growth, and poverty rate were studied. The results of the analysis showed that there are certain differences in the level of socio-economic development between regions. While some regions have high economic potential, income, and employment rates, other regions have low levels of these indicators. Based on the results of the research, scientific conclusions were drawn on reducing socio-economic disparities between regions and ensuring regional development.

Keywords: Regional development, socio-economic development, regional differentiation, gross regional product, economically active population, employment rate, population income, real income growth, poverty rate, inflation, logistics

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE LEVEL OF SOCIO-ECONOMIC STRATIFICATION BY REGIONS

Karimova Shirin Zoxid qizi

PhD, Associate Professor of the "Digital Economy" Department,
Tashkent State University of Economics

Аннотация. В данной статье анализируется уровень социально-экономического развития регионов Узбекистана с использованием ключевых статистических показателей. В ходе исследования были изучены такие показатели, как валовой региональный продукт, доля экономически активного населения, уровень занятости, средний доход на душу населения, темпы роста реальных доходов и уровень бедности. Результаты анализа показали наличие определенных различий в уровне социально-экономического развития между регионами. В то время как одни регионы обладают высоким экономическим потенциалом, уровнем доходов и занятости, другие регионы имеют низкие показатели по этим параметрам. На основе результатов исследования были сделаны научные выводы о сокращении социально-экономического неравенства между регионами и обеспечении регионального развития.

Ключевые слова: Региональное развитие, социально-экономическое развитие, региональная дифференциация, валовой региональный продукт, экономически активное население, уровень занятости, доход населения, темпы роста реальных доходов, уровень бедности, инфляция, логистика

Kirish

So'nggi yillarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va ularning o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiy o'sish jarayonida ayrim hududlarning tez rivojlanishi, boshqalarining esa nisbatan sekin rivojlanishi natijasida hududlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv yuzaga keladi. Bunday farqlar aholining turmush darajasi, bandlik, daromadlar va iqtisodiy imkoniyatlar o'rtasidagi tafovutlarning kuchayishiga olib keladi.

Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholash hududiy rivojlanishning mavjud holatini aniqlash, iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini statistik ko'rsatkichlar asosida baholash hamda hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot, aholining iqtisodiy faollik darajasi, bandlik darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad, real daromadlar o'sish sur'ati va kambag'allik darajasi kabi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholash maqsadida ko'plab tadqiqotchilar va tadqiqot ishlari mavjud bo'lib,

ayrimlarini ko‘rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir. B.Ibragimov “Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari” nomli maqolasida hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni baholash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqadi. Tanlangan indikatorlar asosida kompleks baholash amalga oshirib, har bir hududning holatini integral ko‘rsatkichlar orqali ifodalab beradi. Tahlillar natijasida indikatorli muntazam hududiy baholash tizimini tashkil etish, ma‘lumotlar shaffofligi va doimiyligini ta‘minlash, fazoviy monitoring tizimlaridan foydalanish doirasini yoyish, har bir hudud individualligiga asoslangan strategik rivojlanish va takomillashtirish rejalarini ishlab chiqish hamda indikatorlar tizimini hududiy boshqaruv miqyosida integratsiyalash kabi bir qancha takliflar taqdim etadi [1]. M.Sa‘dullayevaning “O‘zbekistonda hududlar (14 ta) rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish masalalari” nomli tadqiqotida O‘zbekiston Respublikasi hududlari orasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojlanishidagi tafovutlarning sabablari, ularni kamaytirish usullari hamda davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini, hududlar kesimida iqtisodiy salohiyat va investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilib beradi. Tahlilarga tayanib, hududiy mutananosiblikni ta‘minlash bo‘yicha o‘z takliflarini havola qiladi [2]. “Hududlarning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini baholash metodologiyasini takomillashtirish” nomli Z.Xakimov olib borgan tadqiqotida ijtimoiy tabaqalashuvning nazariy yondashuvlar bo‘yicha “Scopus” xalqaro jurnallarida nashr etilgan ilmiy maqolalarni, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini aniqlash bosqichlari va harakatlar sxemasini tahlil qilib beradi va o‘z metodologik uslubini taqdim etib, uning yurtimizning barqaror rivojlanish maqsadlarini ta‘minlashi va aholi turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilganligini, uzoq muddatli ijobiy iqtisodiy o‘zgarishlarga olib kelishini prognozlaydi [3]. F.Abdullayevning 2024 yilgi “Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi” ilmiy jurnalida nashr etilgan “Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishning uslubiy jihatlari” nomli maqolasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yillar kesimida o‘rganib chiqadi. Aholi umumiy daromadlari va aholi jon boshiga real jami daromadlar o‘shida dinamikaning qoniqarli holatda ekanini, kelgusi 5 yil uchun prognoz qilinishicha, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash orqali ko‘rsatkichlarning yanada o‘shishini nazarda tutadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda ishsizlik darajasi pasayib borayotgani va samarali chora-tadbirlar davom etsa, bu tendensiya kelgusida ham saqlanib qolishini, tashqi savdo hajmining ortishi O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashayotganini ko‘rsatadi va kelgusi yillarda bu jarayon yanada kuchayishi mumkinligini aytib, o‘z xulosalarini beradi [4].

Metodologiya

Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholashda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar

tizimi shakllantirildi. Mazkur ko‘rsatkichlar asosida hududlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida taqqoslash va guruhlash usullaridan foydalanildi. Statistik ma‘lumotlar tahlili natijasida hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar aniqlanib, tabaqalashuv darajasi baholandi. Tadqiqot uchun asosiy ma‘lumotlar manbasi sifatida rasmiy statistik ma‘lumotlar va ochiq statistik bazalardan foydalanildi.

Tahlillar

O‘zbekistondagi hamma ma‘muriy hududlari o‘zining tabiiy, iqtisodiy va demografik jihatdan turlicha sharoitlarga egadir. Toshkent, Samarqand va Farg‘onada sanoat, xizmat ko‘rsatish va ayniqsa transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan. Janubiy va g‘arbiy hududlar viloyatlari tabiiy resurslarga boy bo‘lsada, ijtimoiy infratuzilma va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish jihatidan boshqa hududlardan nisbatan orqada turadi. Hududlar bo‘yicha jalb etiladigan investitsiyalarning bir tekisda taqsimlanmagani, ishlab chiqarish tarmoqlari, transport va logistika tarmoqlari, elektr energiya, suv ta‘minoti, kommunikatsiya tizimlarining poytaxt yoki yirik shaharlar atrofida to‘planishi va barcha hududlarda yuqori malakali kadrlar yetishmasligi ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuvga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi.

1-jadval

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar [5]

Hududlar	Ko‘rsatkichlar					
	1	2	3	4	5	6
Andijon viloyati	27139.7	74.3 %	70.2 %	21926.3	104.8 %	9.5 %
Buxoro viloyati	35638.4	71.5 %	67.7 %	27508	102.4%	8.7 %
Farg‘ona viloyati	22813.5	72.3 %	68 %	19119.9	101.1 %	8.6 %
Jizzax viloyati	28602	70.1 %	66 %	19435.1	102 %	11.8 %
Namangan viloyati	23191.8	70.7 %	66.8 %	16849	100.5 %	7.6 %
Navoiy viloyati	120222.2	74.2 %	70.5 %	38112.3	107.9 %	5.7 %
Qashqadaryo viloyati	23319.6	69 %	65 %	18473.5	103.2 %	9.6 %
Qoraqalpog‘iston r	22963.9	68.2%	64.3 %	16858	102.4 %	10.8 %
Samarqand viloyati	24425.8	68.5 %	64.8 %	19215.4	105.3 %	7.5 %
Sirdaryo viloyati	31065.1	69.4 %	65.3 %	19036.5	103.7 %	11.3 %
Surxandaryo viloyati	19425.6	67.8 %	63.7 %	17880	100.2 %	9.3 %
Toshkent shahri	98440.5	86.2 %	82.3 %	60594.4	115.4 %	4.5 %
Toshkent viloyati	49105.4	76.7 %	72.3 %	25123.3	106.4 %	8 %
Xorazm viloyati	26633.7	70 %	66.2 %	23410.8	104.7 %	11.9 %
1	Aholi jon boshiga YaHm (ming so‘m)					
2	Aholining iqtisodiy faollik darajasi (%)					
3	Bandlik darajasi (%)					
4	Jon boshiga o‘rtacha daromad (ming so‘m)					
5	Real daromadlar o‘sish sur‘ati (%)					
6	Kambag‘allik darajasi (%)					

Jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hududiy yalpi mahsulot hajmining eng yuqori ko‘rsatkichi Navoiy viloyatiga

to'g'ri kelayotganini ko'rishimiz mumkin, ammo hudud aholisi boshqa hududlar aholisiga nisbatan anchayin kam, viloyat maydoni mamlakatimizning eng yirik iqtisodiy sanoat zonasi hisoblanadi. Keyingi o'rinda esa Toshkent shahri ya'ni poytaxtimiz aholisi jon boshiga to'g'ri keladigan YaHM aholi turmush darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanini anglatadi. Keyingi ko'rsatkich aholining iqtisodiy faollik darajasi bo'lib, Surxandaryo viloyatiga maksimumi esa Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kemoqda. Bu ko'rsatkichning yuqoriligi hududning mehnat resuslarining katta salohiyatga ega ekanligini va aholi iqtisodiy jarayonlarga faol ishtirok etishini ko'rsatadi, bundan tashqari mehnat bozorida yetarli ish o'rinlarini yaratilishini talab etadi. Bandlik darajasi esa bevosita iqtisodiy faollik bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy faol aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasini bildiradi. Uning yuqoriligi aholining katta qismi ish bilan ta'minlangan, iqtisodiy faoliyat rivojlangan, daromad topish ehtimoli va eng muhimi aholining ijtimoiy faravonligi balandligini anlatadi. Har bir hududda iqtisodiy faol aholi va bandlik darajasi o'rtasidagi tafovut o'rtacha 4 birlik farq qilmoqda. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga, eng pasti esa Surxandaryo viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Aholi jon boshiga o'rtacha daromad darajasi tahlili hududlar o'rtasida tafovutlar bor ekanini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholi daromadlari yuqori shakllangan, masalan, Toshkent shahri, Toshkent, Xorazm Navoiy, Buxoro viloyatlarida ko'proq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxandaryo va Namangan viloyatlarida kamroq ekani kuzatilmoqda. Daromadlar tahlil qilingach, real daromad o'sishini o'rganish zarur. Ko'rsatkich aholining daromadlari inflyatsiya hisobga olingandan keyin qanchaga o'sganini ya'ni o'damlarning sotib olish qobiliyatini qanchaga ko'tarilgani aniqlanadi. Agar ish haqi oshsa, lekin narxlar ham oshsa real daromad unchalik oshmaydi, agar shu holatda narxlarning nisbatan sekin o'sishi real daromadning ilgarilashiga olib keladi. Namangan viloyatida ko'rsatkich atiga 0.5 % ga oshgan bo'lsa, poytaxtda bu 15 % ni qayd etmoqda. So'nggi statistik ko'rsatkich kambag'allik darajasi hisoblanib, bu hududdagi aholining ma'lum minimal daromaddan past yashaydigan qismi foizini bildiradi. Uning yuqoriligi hududlarda iqtisodiy faoliyati va ish o'rinlari yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lsa, pastroqligi aholining turmush tarzi farovon va iqtisodiy imkoniyatlari kengroq ekanini anglatadi. Ko'rsatkich Toshkent shahri va viloyati, Navoiy, Farg'ona, Samarqand, Namangan va Buxoro viloyatlarida pastroq, Jizzax, Qoraqalpog'iston, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida yuqoriroq ekanini ko'rishimiz mumkin.

Tahlillarga asoslanib iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda hududiy yalpi mahsulot hajmi hamda aholi daromadlari nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Boshqa hududlarda esa ishlab chiqarish hajmining pastligi, investitsiyalar oqimining yetarli emasligi, hamda bandlik darajasining pastligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kambag'allik darajasini ko'tarilishiga olib keladi. Shuningdek, jon

boshiga o‘rtacha daromad va real daromadlar o‘shish sur‘ati ko‘rsatkichlari ham hududlar o‘rtasida sezilarli tafovutlarga ega ekanligi kuzatildi. Bu esa hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tahlil natijalari hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv mavjudligini, ya‘ni ba‘zi hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan boshqa hududlardan orqada qolayotganini ko‘rsatadi. Bu esa hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish, bandlikni oshirish, daromadlarni yaxshilash va investitsiya faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlarning muhimligini ta‘kidlaydi. Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini kamaytirish uchun hududiy salohiyatni oshirish ya‘ni sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, bandlikni rag‘batlantirish, hududiy ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, daromadlarni oshirish aholi daromadini ko‘tarish va kambag‘allikni kamaytirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy dasturlar ishlab chiqish, raqamli monitoringni kuchaytirish, hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni doimiy kuzatish va baholash. Mahalliy resurslardan samarali foydalanish ya‘ni hududiy imkoniyatlarga mos iqtisodiy siyosat ishlab chiqish kabi hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov, Baxrom. "Hududlar Kesimida Ijtimoiy-iqtisodiy Barqarorlik Indikatorlarini Ishlab Chiqish Va Baholash Usullari." *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* 3.4: 665409.

2. Djamshedovna, Sa‘dullayeva Mexrinoz. "O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR (14 TA) RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISH MASALALARI." *Eng yaxshi intellektual tadqiqotlar* 56.3 (2025): 352-35

3. Axmadovich, Hakimov Ziyodulla. "HUDUDLARNING IJTIMOYIY TABAQALASHUV DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH." *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali* 4.09 (2024): 415-424.

4. Ozodovich, Abdullaev Farxod. "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishning uslubiy o'zgarishi". *Aktuar moliya va buxgalteriya ilmiy jurnali* 4.04 (2024): 47-63.

5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/rasmiy-statistika-kalendari> sayti ma‘lumotlariga asoslanib muallif tomonidan tayyorlandi

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz